3-SON / 2026-YIL

PARLAMENT TADQIQOTLARI INSTITUTI

PARLAMENT TADQIQOTLARI AXBOROTNOMASI

БЮЛЛЕТЕНЬ ПАРЛАМЕНТСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

BULLETIN OF PARLIAMENTARY RESEARCH



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI HUZURIDAGI
PARLAMENT TADQIQOTLARI INSTITUTI

“Parlament tadqiqotlari axborotnomasi”

huquqiy va siyosiy ilmiy-amaliy jurnali

“Бюллетень парламентских исследований”

правовой и политический научно-практический журнал

“Bulletin of parliamentary research”

legal and political scientific-practical journal

Toshkent – 2026

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

6 **БЕКОВ ИХТИЁР РУСТАМОВИЧ**
Некоторые правовые вопросы участия общественности в правотворчестве в условиях цифровизации

13 **ЖУРАЕВ ШЕРЗОД ЮЛДАШЕВИЧ**
Административно-правовые механизмы обеспечения занятости населения в Узбекистане, россии и испании: сравнительно-правовое исследование

26 **ИСАБАЕВ АКМАЛЖОН ТАШБАЕВИЧ**
Сравнительно-правовой анализ законодательства узбекистана в сфере обращений и административных процедур

36 **ИЛХОМБЕКОВ ЖАСУРБЕК ИЛХОМБЕК УГЛИ**
Конституционно-правовые основы информационной безопасности и проблемы её обеспечения в условиях современных угроз

42 **ЖОЛДАСОВА ШАХНОЗА БАТИРОВНА**
Институт электронного обсуждения проектов нормативно-правовых актов: эффективность платформы «regulation.gov.uz» и пути её совершенствования

47 **РИХСИМОВ КОМРОН АБРОРОВИЧ**
Совершенствование права лиц, лишенных свободы, на получение высшего образования

52 **ЖАХОНОВ ШОХРУХ ШУХРАТ УГЛИ**
Цифровой суверенитет и права человека: конституционно-правовые основы обеспечения информационной безопасности

58 **ЮЛДАШОВ ФАРХОД СОЛИЕВИЧ**
Значение противодействия коррупции в совершенствовании государст-венного управления

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

65 **НАСРУЛЛАЕВ ФИРДАВС СУХРОБОВИЧ**
Соотношение институтов экстрадиции и взаимной правовой помощи в международном сотрудничестве по уголовным делам

70 **АСЛОНОВ НАВРУЗБЕК РУСТАМОВИЧ**
Право молодежи на поиск, получение и распространение информации: анализ международных стандартов и национального законодательства

12.00.11 – ПАРЛАМЕНТСКОЕ ПРАВО

76 **ТОЖИЕВ ОДИЛЖОН ФОТИХЖОН УГЛИ**
Цифровизация функции парламентского контроля: цифровые механизмы электронных запросов, депутатских запросов и отчётности правительства

81 **МУХАММАДОВ ЗАФАР СУЮНОВИЧ**
Совершенствование организационно-правовых основ применения систем искусственного интеллекта при осуществлении полномочий Олий Мажлиса

22.00.00 – СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

93 **РАХМАНОВ ДМИТРИЙ КАЛАНДАРОВИЧ, НОРБУТАЕВ ИСЛАМБЕК ИСМАТУЛЛА УГЛИ**
Правовое регулирование использования социальных сетей несовершеннолетними: зарубежные модели и перспективы развития законодательства Республики Узбекистан

23.00.00 – ПОЛИТИЧЕСКИЕ НАУКИ

101 **ФАЙЗИЕВ ШАХЗОД НОРМУРОД УГЛИ**
Фактор риска в стратегическом планировании и особенности его оценки

109 **СОБИРОВ КОБИЛЖОН КОСИМОВИЧ**
Культурно-гуманитарные связи как приоритетное направление сотрудничества Узбекистана и ШОС

12.00.10 –XALQARO HUQUQ

JINOYAT ISHLARI BO'YICHA XALQARO HAMKORLIKDA EKSTRADITSIYA VA O'ZARO HUQUQIY YORDAM INSTITUTLARINING HUQUQIY NISBATI

Nasrullayev Firdavs Suxrobovich,
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0001-9401-8249
e-mail: nasrullaevfirdavs@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik doirasida ekstraditsiya va o'zaro huquqiy yordam institutlarining huquqiy tabiati, mazmuni hamda o'zaro funksional bog'liqligi tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi ushbu institutlarni bir-biridan farqlash va ularning yagona hamkorlik tizimidagi o'rnini aniqlashdan iborat. Tizimli, qiyosiy-huquqiy va tarixiy-huquqiy metodlar asosida milliy qonunchilik, xalqaro standartlar va amaliy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Natijada xalqaro hamkorlikni faqat o'zaro huquqiy yordam bilan cheklash ilmiy jihatdan asosli emasligi, ekstraditsiya va o'zaro huquqiy yordam mustaqil, biroq o'zaro to'ldiruvchi institutlar ekani asoslandi.*

Kalit so'zlar: *xalqaro hamkorlik, jinoyat ishlari, ekstraditsiya, o'zaro huquqiy yordam, jinoiy ta'qib, yurisdiksiya, inson huquqlari.*

СООТНОШЕНИЕ ИНСТИТУТОВ ЭКСТРАДИЦИИ И ВЗАИМНОЙ ПРАВОВОЙ ПОМОЩИ В МЕЖДУНАРОДНОМ СОТРУДНИЧЕСТВЕ ПО УГОЛОВНЫМ ДЕЛАМ

Насруллаев Фирдавс Сухробович,
главный научный сотрудник
Научно-исследовательского института криминологии Республики Узбекистан,
независимый соискатель
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. *В статье исследуются правовая природа, содержание и функциональная взаимосвязь институтов экстрадиции и взаимной правовой помощи в международном сотрудничестве по уголовным делам. Цель исследования заключается в разграничении указанных институтов и определении их места в единой системе международного уголовно-правового сотрудничества. На основе системного, сравнительно-правового и историко-правового методов проанализированы национальное законодательство, международные стандарты и практические показатели. В результате обосновано, что международное сотрудничество не может быть сведено только к взаимной правовой помощи, поскольку экстрадиция и взаимная правовая помощь являются самостоятельными, но взаимодополняющими институтами.*

Ключевые слова: *международное сотрудничество, уголовные дела, экстрадиция, взаимная правовая помощь, уголовное преследование, юрисдикция, права человека.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN EXTRADITION AND MUTUAL LEGAL ASSISTANCE IN INTERNATIONAL COOPERATION IN CRIMINAL MATTERS

Nasrullaev Firdavs Sukhrobovich,
Chief Research Fellow, Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan, Independent Researcher, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *The article examines the legal nature, content and functional relationship between extradition and mutual legal assistance within international cooperation in criminal matters. The purpose of the study is to distinguish these institutions and determine their role in the unified system of international criminal justice cooperation. Using systematic, comparative legal and historical legal methods, the article analyzes national legislation, international standards and practical indicators. The study concludes that international cooperation cannot be reduced solely to mutual legal assistance, since extradition and mutual legal assistance are independent but complementary legal institutions.*

Keywords: *international cooperation, criminal matters, extradition, mutual legal assistance, criminal prosecution, jurisdiction, human rights.*

Kirish

Turli davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi idoralari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikning ajralmas va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu hamkorlik shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, xalqaro va milliy huquq normalari bilan tartibga solinadigan, muvofiqlashtirilgan hamda maqsadli faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, jinoyat ishlari sohasida xalqaro hamkorlik davlatlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, davlatchilik va huquq instituti shakllangan davrlardan boshlab bosqichma-bosqich takomillashib kelgan.

Shu bois mazkur institutning shakllanishi va evolyutsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy jinoyat-protsessual huquqni anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya

Tadqiqotda tizimli-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy va formal-yuridik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tizimli-huquqiy metod ekstraditsiya va o‘zaro huquqiy yordam institutlarini jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlikning yagona tizimidagi o‘rni nuqtayi nazaridan baholash imkonini berdi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali ushbu institutlarning huquqiy tabiati, maqsadi va qo‘llanish mexanizmlari o‘zaro solishtirildi.

Tarixiy-huquqiy metod esa jinoyat ishlari sohasidagi xalqaro hamkorlikning shakllanish bosqichlarini aniqlashga xizmat qildi. Formal-yuridik metod yordamida milliy qonunchilik va xalqaro-huquqiy manbalardagi normalarning mazmuni tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Ilmiy adabiyotlarda jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlikning vujudga kelishi va rivojlanishini izohlashda turli nazariy yondashuvlar mavjud. D.Sh. Umarxanovaning fikricha, jinoyat ishlari sohasida xalqaro hamkorlikning shakllanishi milliy huquq tizimida davlat hududiy yaxlitligi g‘oyasining qaror topishi bilan bevosita bog‘liq. Bu esa xalqaro hamkorlikni tasodifiy hodisa emas, balki davlatchilik taraqqiyotining qonuniy natijasi sifatida baholash imkonini beradi[1].

F.F. Martens jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik amaliyotini uch bosqichga ajratadi: 1) qadimgi davrdan XVII asr oxirigacha bo‘lgan davr; 2) XVIII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan bosqich; 3) 1840-yildan esa jinoyatchilarni kelishilgan tartibda topshirish amaliyoti shakllangan [2].

Mazkur davrlashtirish I.A. Shearer [3] va L.A. Lazutin [4] tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, ayniqsa L.A. Lazutin ushbu tasnifni Rossiya tarixi misolida chuqurlashtirib, davlatlararo shartnomalarning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, hatto umumiy xarakterga ega bo‘lgan shartnomalarda ham ekstraditsiyaga asos bo‘ladigan jinoyatlar va uni rad etish holatlari aniq belgilab qo‘yilgan.

A.G. Volevodz jinoyat protsessida xalqaro hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishini tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilib, ushbu institutning amaliy mazmunini ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar orqali ochib beradi [5].

Muallifning xulosalariga ko‘ra, jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik, ayniqsa jinoiy javobgarlikka tortish sohasidagi sudlov faoliyati muayyan tarixiy bosqichlar asosida shakllangan bo‘lib, har bir bosqich o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sharoiti bilan belgilangan.

M. Bassiouni esa ekstraditsiya instituti rivojlanishini to‘rt bosqichga ajratib, 1948-yildan keyingi davrda inson huquqlarini himoya qilish ekstraditsiya jarayonining ustuvor yo‘nalishiga

aylanganini ta'kidlaydi [6].

Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv xalqaro hamkorlikning insonparvarlik jarayonini ifodalaydi va zamonaviy xalqaro huquq tamoyillari bilan uyg'unlashadi.

Mazkur ilmiy yondashuvlar jinoyat ishlari sohasida xalqaro hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishi tarixiy, siyosiy hamda huquqiy omillar ta'sirida bosqichma-bosqich takomillashib borganini ko'rsatadi. Bu esa ekstraditsiya va jinoiy javobgarlikni amalga oshirish institutlarini faqat texnik mexanizm sifatida emas, balki inson huquqlari va davlat suvereniteti o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi umumiy huquqiy institutlar sifatida baholash zarurligini tasdiqlaydi.

Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning ilk ko'rinishlari qadimgi Misr, Xitoy va Ossuriya – Bobil sivilizatsiyalarida shakllangan [7].

D.P. Nikolskiyning ta'kidlashicha, qadimgi Yunoniston shahar-davlatlari hamda Gretsiya va Rim imperiyalari o'rtasidagi shartnomalarda qochoq qullarni ushlab berishga oid qoidalar mavjud bo'lgan [8].

O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatchilik an'analarida ijtimoiy munosabatlar diniy, huquqiy va axloqiy normalar uyg'unligi asosida tartibga solingan. Xususan, zardushtiylikning muqaddas manbasi hisoblangan "Avesto" o'z davrining ilg'or diniy, huquqiy va siyosiy manbalaridan biri sifatida jamiyatda shakllangan ijtimoiy, iqtisodiy, mulkiy, oilaviy hamda jinoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etgan [9].

O'rta asrlarda Eftaliylar, Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va boshqa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda jinoyat ishlari sohasidagi hamkorlik, asosan, savdo xavfsizligini ta'minlash va urushga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan jinoiy guruhlarni topshirish talablarida namoyon bo'lgan. Muhammad Xorazmshoh va Chingizxon o'rtasidagi ziddiyat mazkur hamkorlik mexanizmlari mavjud bo'lmagan hollarda qanday og'ir oqibatlar kelib chiqishini yaqqol ko'rsatadi [10].

O'zbekistonda jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning zamonaviy tizimi mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng shakllandi. Ilgari, mustaqillikni qo'lga kiritgunga qadar, O'zbekiston mustaqil xalqaro huquq subyekti sifatida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega emas edi.

1923-yil 3-oktabrda sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlab berish to'g'risidagi Namunaviy konvensiya loyihasining ma'qullanishi mazkur sohada yagona shartnomaviy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan dastlabki urinishlardan biri bo'lgan. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga o'n to'rtinchi bo'limning [11] kiritilishi milliy qonunchilikda sifat jihatidan yangi bosqichni belgiladi.

Xalqaro huquq doktrinasida "ekstraditsiya" atamasi keng qo'llanilsa, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida mazkur institut "ushlab berish" tushunchasi orqali ifodalanadi. Shu bois ushbu maqolada "ekstraditsiya" atamasi xalqaro-huquqiy kategoriya sifatida, "ushlab berish" esa milliy jinoyat-protsessual tartib doirasidagi huquqiy ifoda sifatida talqin qilinadi.

Ekstraditsiya va o'zaro huquqiy yordam institutlarining xalqaro-huquqiy asoslari universal va mintaqaviy hujjatlarda alohida tartibga solingan.

Jumladan, BMTning 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasining 16-moddasi ekstraditsiyaga, 18-moddasi esa o'zaro huquqiy yordamga bag'ishlangan.

BMTning 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida ham mazkur institutlar alohida tartibga solinib, 44-moddada ekstraditsiya, 46-moddada esa o'zaro huquqiy yordamning asosiy qoidalari belgilangan.

1957-yilgi Ekstraditsiya to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 2-moddasida ekstraditsiya qo'llaniladigan jinoyatlar va jazo muddatiga oid talablar, 3–6, 9- va 11-moddalarida ekstraditsiyani rad etish yoki cheklash bilan bog'liq holatlar, 14-moddasida esa maxsuslik prinsipi mustahkamlangan.

BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 14-dekabrdagi 45/116-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Ekstraditsiya to'g'risidagi Namunaviy shartnoma davlatlar o'rtasidagi ikki to-

monlama ekstraditsiya shartnomalarini ishlab chiqishda foydalaniladigan tavsiyaviy huquqiy model vazifasini bajaradi.

Mazkur xalqaro hujjatlarning qiyosiy tahlili ekstraditsiya va o'zaro huquqiy yordam yagona xalqaro hamkorlik tizimiga kirsa-da, mazmuni va huquqiy oqibatlariga ko'ra mustaqil institutlar ekanini ko'rsatadi.

Ekstraditsiya shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun boshqa davlatga topshirishga qaratilgan bo'lsa, o'zaro huquqiy yordam jinoyat ishi bo'yicha dalillarni olish, protsessual harakatlarni bajarish va boshqa huquqiy ko'mak shakllarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda "jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam" va "jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik" tushunchalarining o'zaro nisbatiga oid turli qarashlar mavjud. A.G. Volevodz [12] va V.M. Voljenkina [13] o'zaro huquqiy yordam mazmuniga ekstraditsiya va jinoiy javobgarlikka tortishni ham kiritadi.

Biroq V.V. Milinchuk bunday yondashuvni tanqid qilib, o'zaro huquqiy yordam va ekstraditsiya huquqiy tabiatiga ko'ra mustaqil institutlar ekanini ta'kidlaydi [14].

Muallif nazarida, jinoyat ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni faqat o'zaro huquqiy yordam instituti bilan cheklash nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri emas. Ekstraditsiya, o'zaro huquqiy yordam va jinoiy javobgarlikni amalga oshirish institutlari huquqiy tabiatiga ko'ra mustaqil bo'lsa-da, amalda ular yagona maqsad – jinoyat uchun jazo muqarrarligini ta'minlashga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, xalqaro hamkorlikni kompleks huquqiy institut sifatida talqin qilish zamonaviy xalqaro-huquqiy hamkorlik tendensiyalariga mos keladi. Mazkur yondashuv davlat suvereniteti va inson huquqlarini ta'minlash o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini beradi.

Jinoyat ishlari sohasida xalqaro hamkorlikning samaradorligi, avvalo, ekstraditsiya va o'zaro huquqiy yordam mexanizmlarining qay darajada institutsionallashgani bilan belgilanadi. Xususan, muallif tomonidan umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida:

1-jadval

Yil	So'rovlar	Asosiy hamkor davlatlar	Qanoatlantirilgan	Rad etilgan
2020	128	Rossiya, Qozog'iston, Belarus	61	11
2021	243	Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston	121	25
2022	468	Rossiya, Qozog'iston, Turkiya	299	26
2023	598	Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston	396	40
2024	447	Rossiya, Qozog'iston, BAA	307	62
Jami	**1 884**		**1 184**	**164**

2020–2024-yillar davomida O'zbekiston tomonidan xorijiy davlatlarga yuborilgan so'rovlarning 62,8 foizi ijobiy hal etilgan [15].

Umumlashtirilgan statistik ma'lumotlar ikki tomonlama ekstraditsiya shartnomalari mavjud bo'lgan davlatlar bilan hamkorlik nisbatan barqaror amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Aksincha, ekstraditsiya shartnomasi mavjud bo'lmagan mamlakatlar bilan munosabatlarda jinoiy javobgarlikni amalga oshirish, asosan, o'zaro huquqiy yordam yoki jinoiy ta'qibni amalga oshirish uchun ish materiallarini vakolatli davlatga yuborish mexanizmlari orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa amalda ekstraditsiya, o'zaro huquqiy yordam va jinoiy javobgarlikni amalga oshirish institutlarining o'zaro funksional bog'liqligini yaqqol namoyon etadi.

Xalqaro hamkorlikning samarali qo'llanilishiga misol sifatida 1999-yil mart oyida diniy-ekstremistik faoliyat bilan bog'liq jinoyat ishi bo'yicha qidiruvda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining Turkiya hududida aniqlanish holatini keltirish mumkin [16].

Mazkur holatda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o'rtasidagi hamkorlik Interpol kanallari orqali axborot almashinuvi asosida ta'minlangan. Keyinchalik mazkur shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik masalasini hal etish tegishli xalqaro-huquqiy mexanizmlar doirasida ko'rib chiqilgan. Ushbu holat ekstraditsiya, o'zaro huquqiy yordam va jinoiy javobgarlikni amalga oshirish institutlarining o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi jarayon ekanini yaqqol namoyon etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoyat ishlari so-

hasida xalqaro hamkorlik ekstraditsiya, o'zaro huquqiy yordam va jinoiy javobgarlikni amalga oshirish institutlarining kompleks qo'llanilishi orqali samarali amalga oshiriladi. Ushbu institutlarning har biri mustaqil huquqiy tabiatga ega bo'lsa-da, amalda ular bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, birinchidan, ekstraditsiya va o'zaro huquqiy yordam institutlarining tushunchasi, maqsadi, predmeti, qo'llanish asoslari hamda huquqiy oqibatlarini O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida alohida belgilash;

ikkinchidan, ekstraditsiya to'g'risida shartnoma mavjud bo'lmagan davlatlar bilan hamkorlikda o'zarolik prinsipini qo'llash shartlari, o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish hamda jinoiy ta'qibni amalga oshirish uchun ish materiallarini vakolatli davlatga yuborish tartibini aniq huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlash taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik davlatlar o'rtasida jinoyatlarni aniqlash, fosh etish, tergov qilish, aybdor shaxslarni jinoiy ta'qib etish hamda sud hukmlarining ijrosini ta'minlashga qaratilgan muvofiqlashtirilgan huquqiy faoliyat hisoblanadi. O'zaro huquqiy yordam, jinoiy ta'qibni amalga oshirish va ekstraditsiya mazkur hamkorlik doirasida o'zaro bog'liq, biroq maqsadi, predmeti va huquqiy oqibatlariga ko'ra mustaqil institutlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hamkorlik davlat suverenitetini hurmat qilish, ichki ishlarga aralashmaslik, o'zarolik hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Umarxanova D.Sh. Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirish: yuridik fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 2018. 33-b.
2. Мартенс Ф.Ф. Современное международное право цивилизованных народов: научная литература. Т. I. Санкт-Петербург, 1887. С. 7.
3. Shearer I.A. Extradition in International Law. England, 1971. P. 8.
4. Лазутин Л.А. Правовая помощь по уголовным делам как межотраслевой нормативный комплекс. Екатеринбург, 2008; Международное сотрудничество в сфере оказания правовой помощи по уголовным делам: УПП/ под ред. Ф.К. Зиннурова. М., 2016. С. 26–34.
5. Волеводз А.Г. Правовые основы новых направлений международного сотрудничества в сфере уголовного процесса: дисс. ... д-ра юрид. наук. М., 2002. С. 81–89.
6. Bassiouni M.C. Introduction to International Criminal Law. New York, 2003. P. 178; International Extradition: United States Law and Practice. 6th Edition. Oxford University Press, 2015. P. 5.
7. Сафонов А.А. История права и государства зарубежных стран. М.: ГУ-ВШЭ, 2010. С. 7.
8. Никольский Д.П. О выдаче преступников по началам международного права. Санкт-Петербург: Типография М.М. Стасюлевича, 1884. С. 44–49.
9. Azizov N., Chutboyev M. "Avesto" — zardushtiylik huquqining muhim tarixiy-huquqiy manbasi // Jamiyat va innovatsiyalar. 2025. Jild 6. № 1. B. 5–13. DOI: 10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp5-13.
10. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. Toshkent, 2012. 18-b.
11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Toshkent: Adolat, 2021. 296-b.
12. Волеводз А.Г. Правовые основы новых направлений международного сотрудничества в сфере уголовного процесса: дисс. ... д-ра юрид. наук. М., 2002. С. 12.
13. Волженкина В.М. Применение норм международного права в российском уголовном процессе: проблемы теории и практики: дисс. ... канд. юрид. наук. М., 1999. С. 34.
14. Милинчук В.В. Взаимная правовая помощь по уголовным делам: общие условия оказания и формы: действующая практика и перспективы развития: дисс. ... канд. юрид. наук. М., 2001. С. 214, 216.
15. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tergov departamentining 2020–2024-yillarga oid umumlashtirilgan statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
16. Якубов О. Волчья стая. Кровавый след террора: политический детектив. М. С. 172–193.